

BOSHLANG'ICH SINFLAR UCHUN MATEMATIKADA MANTIQUIY BOG'LANISHLARNI O'YINLAR BILAN MUSTAHKAMLASH

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani 56-maktab

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Jalilova Feruza

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik fikrlash va mantiqiy bog'lanishlarni shakllantirish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanishning samaradorligi yoritilgan. Tadqiqot davomida o'quvchilarning diqqatini jalb etuvchi, ularni faol fikrlashga undovchi hamda mavzuni chuqurroq anglashga yordam beruvchi turli o'yinli metodlar tahlil qilinadi. O'yinlar orqali matematik tushunchalarni mustahkamlash, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish va o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish asosiy maqsad qilib olingan. Maqolada, shuningdek, dars jarayoniga moslab ishlab chiqilgan amaliy mashg'ulotlar misolida o'yinli yondashuvning afzalliklari ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, matematika, mantiqiy bog'lanish, didaktik o'yinlar, o'yinli metod, tafakkurni rivojlantirish, o'quv jarayoni, kreativ fikrlash.

Annotation: This article discusses the effectiveness of using didactic games in the process of developing mathematical thinking and logical connections in primary school students. The study analyzes various game methods that attract students' attention, encourage them to think actively, and help them understand the topic more deeply. The main goal of games is to strengthen mathematical concepts, develop logical thinking, and increase students' interest in the lesson. The article also shows the advantages of a game approach using the example of practical exercises designed to fit the lesson process.

Key words: Primary education, mathematics, logical connections, didactic games, game method, development of thinking, learning process, creative thinking.

Аннотация: В статье рассматривается эффективность использования дидактических игр в процессе развития математического мышления и логических связей у учащихся младших классов. В исследовании анализируются различные

игровые методы, которые привлекают внимание учащихся, побуждают их активно мыслить и помогают им глубже понять тему. Основная цель — закрепить математические понятия, развить логическое мышление и повысить интерес учащихся к уроку с помощью игр. В статье также демонстрируются преимущества игрового подхода с использованием практических упражнений, разработанных с учетом особенностей учебного процесса.

Ключевые слова: Начальное образование, математика, логические связи, дидактические игры, игровой метод, развитие мышления, процесс обучения, творческое мышление.

Kirish: Bugungi kunda ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlashi, mantiqiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, matematika fanini o'qitishda bolalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish, ularning sabab-oqibatli bog'lanishlarni tushunish qobiliyatini oshirish orqali chuqur bilim berish mumkin. Bu jarayonda an'anaviy usullar bilan bir qatorda didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi, faol ishtirokini ta'minlaydi va bilimlarni mustahkamlashda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

O'yinlar orqali o'rgatish o'quvchilar uchun qiziqarli muhit yaratib, matematik tushunchalarni osonroq va tabiiyroq o'zlashtirishga yordam beradi. Mazkur maqolada matematik darslarda o'yinli metodlarning ahamiyati, ular orqali mantiqiy bog'lanishlarni mustahkamlash yo'llari hamda amaliy misollar orqali bu uslubning samaradorligi yoritiladi.

Nazariy asoslar: Boshlang'ich ta'lim bosqichi – bu o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va xulosalar chiqarish ko'nikmalari shakllanadigan eng muhim davrdir. Matematikada mantiqiy bog'lanishlar deganda, o'quvchining bir tushunchani ikkinchisiga bog'lab tushunishi, sabab-oqibat munosabatlarini anglay olishi tushuniladi. Pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, bu jarayonda faqatgina og'zaki tushuntirish emas, balki amaliy faoliyat, ayniqsa, o'yin elementlari orqali bilim berish samaraliroq bo'ladi.

Didaktik o'yinlar – bu bolalarning psixologik va yosh xususiyatlariga mos ravishda tashkil etilgan, bilim berish va tarbiyaviy vazifalarni birgalikda hal qiluvchi metod hisoblanadi. Ular orqali bolalar mustaqil fikrlashni o'rganadi, bilimlarni amalda qo'llashni o'zlashtiradi va faol ishtirokchi sifatida bilim olishga kirishadi.

Asosiy qism: O'yinlar orqali mantiqiy bog'lanishlarni mustahkamlash: Matematika darslarida qo'llaniladigan ba'zi didaktik o'yinlar:

1. “Ortig'i qaysi?” o'yini

O'quvchilarga bir nechta sonlar to'plami beriladi. Ulardan qaysi biri mantiqan umumiy qonuniyatga to'g'ri kelmasligini aniqlash so'raladi. Bu o'yin sabab-oqibat bog'lanishini tushunishga yordam beradi.

2. “Mantiqiy zanjir”

Birinchi so'zni muallim aytadi (masalan, 2), keyingilar esa mantiqan shu son bilan bog'liq (masalan, 4 — 2 ga ko'paytirilgan, 8 — 4 ga ko'paytirilgan...) tarzda ketma-ket aytiladi.

3. “Top va tushuntir”

Matematik misollar orqali yashirilgan qonuniyatni aniqlash va uni og'zaki tushuntirish talab qilinadi. Masalan: $1+2=3$, $2+3=5$, $3+4=7 \rightarrow$ savol: $4+5=?$ va nima sababdan?

4. “Sonlar sirli uyi”

Raqamlar uyasida berilgan raqamlar orasidagi bog'lanishni topish va “uyda” qaysi son yashirinligini aniqlash.

Ushbu o'yinlar orqali nafaqat matematik ko'nikmalar, balki mantiqiy fikrlash, topqirlik va diqqat ham rivojlanadi. Ular o'quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar. “Boshlang‘ich sinfda matematika o‘qitish metodikasi” – T. H. Yusupova, G. S. Po‘latova va boshqalar “Matematika darslarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar, mashqlar va o‘yinlardan foydalanish orqali o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshirish.” Har bir mavzuga mos ravishda o‘yinli mashqlar keltirilgan. Masalan, “Nimani ortiqcha?”, “Top-to‘g‘ri tartib” kabi o‘yinlar orqali tahliliy fikrlash shakllantiriladi. “Boshlang‘ich ta’limda didaktik o‘yinlar” – M. G‘ulomova” O‘yin — o‘quvchilarning psixik rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan, mantiqiy tafakkurni faollashtiruvchi metoddir.” O‘yinlar bolalarning yoshiga va aqliy imkoniyatlariga mos tanlanganida, ular matematika fanidagi mantiqiy bog‘lanishlarni chuqurroq tushunadilar. “Didaktik o‘yinlar to‘plami” – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi nashri “Matematika darslarida interfaol va didaktik o‘yinlardan foydalanish orqali ta’lim jarayonini jonlantirish.” Har bir sinf bo‘yicha maxsus o‘yinlar, ularga metodik ko‘rsatmalar va qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar mavjud. Yana bir asarda, “7-11 yosh oralig‘ida bolalarda mantiqiy operatsiyalar shakllana boshlaydi. O‘yinlar bu bosqichda rivojlanishni tezlashtiradi¹” shunday g‘oya ilgari suriladi.

Mavzuning dolzarbligi: Bugungi kunda ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlar va zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarda mustahkam bilim asoslarini shakllantirish, ularning fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyatini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biridir. Matematika fani esa bu borada asosiy vositalardan biri bo‘lib, undagi mantiqiy bog‘lanishlarni to‘g‘ri anglash va amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmasi o‘quvchilarning keyingi bosqichlardagi muvaffaqiyatli o‘zlashtirishi uchun muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Maktab yoshidagi bolalarda o‘yin faoliyati yetakchi rol o‘ynaydi. Shu bois, mantiqiy bog‘lanishlarni shakllantirishda o‘yin elementlaridan foydalanish nafaqat o‘quvchilarni fanga qiziqtiradi, balki ularning faol ishtirokini ta’minlab, chuqur tushunishga ham olib keladi. O‘yin orqali ta’lim berish bolalarning e’tiborini jamlash, mustaqil fikrlash, tahlil

¹ Piaget J. – “Bolalarning aqliy rivojlanish nazariyasi”

qilish va xulosa chiqarish kabi ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich sinflarda matematik bilimlarni o'yin orqali berish va mantiqiy bog'lanishlarni mustahkamlash dolzarb, zamonaviy hamda samarali yondashuv hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu ilmiy maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik mantiqiy bog'lanishlarni shakllantirish va mustahkamlash jarayonida o'yinlardan samarali foydalanish imkoniyatlarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotda sifatli (qualitative) va qisman miqdoriy (quantitative) metodlardan foydalanildi. mavjud ilmiy-adabiyotlar, o'quv dasturlari, metodik qo'llanmalar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar tahlil qilindi. O'yin orqali o'qitishning afzalliklari, ayniqsa, mantiqiy tafakkurni rivojlantirishdagi o'rni o'rganildi. Boshlang'ich sinf dars jarayonlarida o'yin usullarining qo'llanilish holati va o'quvchilarning ushbu jarayondagi ishtiroki kuzatildi. O'qituvchilarning dars metodikasi va o'quvchilarning faolligi tahlil qilindi. Tanlab olingan sinflarda matematik darslarda turli mantiqiy o'yinlardan (jumladan, jumboqlar, topishmoqlar, konstruktorlar, rol o'yinlari) foydalanildi. Ushbu faoliyat natijasida o'quvchilarning mantiqiy bog'lanishlarni anglash darajasi baholandi. Tadqiqot davomida yig'ilgan ma'lumotlar tahlil qilinib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda o'yinli metodlarning ijobiy ta'siri aniqlangan. Bu esa mavzuning nazariy va amaliy ahamiyatini yanada asoslab berdi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida boshlang'ich sinflarda matematik darslarda mantiqiy o'yinlardan foydalanishning samaradorligi tahlil qilindi. Eksperimental sinflarda o'tkazilgan darslarda turli xil didaktik va mantiqiy o'yinlar, topishmoqlar, moslashtirilgan matematik boshqotirmalar hamda interaktiv usullar qo'llanildi. Natijalar quyidagi asosiy jihatlarida tahlil qilindi: O'quvchilarning faolligi va ishtiroki – O'yinlardan foydalanilgan sinflarda o'quvchilar dars jarayonida faolroq ishtirok etgani, savollarga javob berishga va muammoli vaziyatlarni hal etishga ko'proq intilgani kuzatildi. Bu esa ularning darsga bo'lgan qiziqishini oshirishini ko'rsatdi. Mantiqiy bog'lanishlarni tushunish darajasi – Tadqiqot avvalida va oxirida o'quvchilarga berilgan testlar natijasi shuni ko'rsatdiki, o'yin asosida tashkil etilgan darslardan so'ng mantiqiy tafakkurga doir topshiriqlarni bajarish

darajasi oʻrtacha 25–30% ga oshgan. Jumladan, "tartibga solish", "oʻxshashlikni aniqlash", "ortiqchani topish" kabi mashqlarda yaxshilanish kuzatildi. Oʻqituvchilar fikri – Soʻrovnoma natijalariga koʻra, oʻqituvchilarning 85% dan ortigʻi mantiqiy oʻyinlar orqali dars oʻtish oʻquvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatni anglash va tezkor qaror qabul qilish koʻnikmalarini rivojlantirishini maʼlum qilgan. Psixologik muhit va dars samaradorligi – Oʻyin asosidagi darslarda oʻquvchilar erkin va ijobiy ruhda ishtirok etgan, bu esa sinfdagi umumiy psixologik muhitni sogʻlomlashtirgan va darsning samaradorligini oshirgan.

Xulosa va takliflar: Xulosalar shuni koʻrsatadiki, Yuqorida oʻtkazilgan tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, boshlangʻich sinflarda matematik dars jarayonida oʻyinlardan foydalanish oʻquvchilarning mantiqiy tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Oʻyinli faoliyat oʻquvchilarni darsga faol jalb etadi, mustaqil fikrlashga undaydi, muammoli vaziyatlarni hal etishga tayyorlaydi hamda ularda matematik tushunchalar oʻrtasidagi mantiqiy bogʻlanishlarni anglash koʻnikmasini rivojlantiradi. Mantiqiy oʻyinlar bolalarda bilimlarni mustahkamlashga xizmat qilishi bilan birga, ularning tafakkurini ham rivojlantiradi; Dars jarayoniga oʻyin elementlarining kiritilishi oʻquvchilarda fanga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi; Oʻyin orqali oʻrgatish oʻquvchilarning darsga boʻlgan qiziqishini oshiradi va ularni ijodiy fikrlashga undaydi. Shu boisdan, boshlangʻich sinf matematika darslarida didaktik oʻyinlardan tizimli va maqsadli foydalanish dolzarb va zaruriy pedagogik yondashuv hisoblanadi. Kelgusida bu boradagi metodik tadqiqotlarni kengaytirish, oʻyinlarning turlari, ularni qoʻllash usullari va oʻquvchilarga taʼsirini chuqurroq oʻrganish ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Yoʻldoshev A. "Boshlangʻich taʼlim metodikasi", Toshkent, 2020.
2. Tadjibayeva M. "Matematika darslarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish", Ilm-Fan, 2019.
3. Vygotskiy L.S. "Pedagogik psixologiya", Moskva, 2004.
4. Turakulov X. "Oʻyinli metodlar orqali taʼlim samaradorligini oshirish", Maʼrifat, 2021.
5. Xalq taʼlimi vazirligi. "Boshlangʻich taʼlim davlat standarti", Toshkent, 2023.